

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

Jild 3, Son 6/s

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Мамаражабов Бобир Нормүмин ўғли</i> САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК	8-17
<i>Хайдаров Абдулҳоди Ахмадали ўғли</i> XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА ТОМОРҶАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР	18-22
<i>Назаров Азизбек Ёқубжонович</i> ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ	23-31
<i>Abdulloyev Jamshed Izzatulloyevich</i> MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI	32-36
<i>Пасилов Баҳодир Абдуллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНинг АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 йй.)	37-41
<i>Ismailov G'afurjon Xasanovich</i> TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI" MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI	42-46
<i>Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich</i> BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ISLOHOTLAR	47-50
<i>Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna</i> SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY T AHLIL	51-55
<i>Нафиддинова Хосият Равшановна</i> БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР	56-60

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Zhang Hongzhi, Wu Bo</i> RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR SPREAD	61-66
<i>Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna</i> MIN TAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	67-72
<i>Nayimov Shoxruh</i> PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A COMMERCIAL BANK	73-79

Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich

ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE
DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 80-88

Rahmatullaev Bezhzod Rahmatullaevich

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР
МАСАЛАЛАРИ 89-95

Abdullayeva Zamira Muxtarovna

МЕҲНАТ BOZORI TALABLARIGA OLIY TA'LIM XIZMATLARI MODELLARINI
MOSLASHTIRISH 96-102

Imomov Xolmurod Norkulovich, Sharipov Tulkin Saidakhmedovich

ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ
ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ 103-114

Erqashov Akmadzhon Mahmudjon yfli

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА
БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 115-122

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Imomova Nozimaxon Avazxonovna

JAMIyat FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS IJTIMOIY-FALSAFIY
XUSUSIYATLARI 123-129

Qodirov Davronbek Hoshimovich

ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI 130-133

Jabborova Saodat Sattorovna

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHIYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN
HISSASI 134-142

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi

L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARNING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA
IZOHLANISHI 143-149

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDА EKVIVALENTLIK
MASALASI 150-154

Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna

UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY
TA'MINOTI 155-160

Mirzayeva Yelena Sa'dullaevna

O'ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH 161-166

Alimjanova Shohsanam Azamat qizi

INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI	167-171
<i>Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna</i> BADIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalaming "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida)	172-176
<i>Hamroqulova Marjona Nabijon qizi</i> “МАНБУБ UL-QULUB” ASARIDAGI FRAZEMALAR LARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI	177-181

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Zulfiqarov Sherzod Xurramovich</i> ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР FAOLIYТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	182-191
<i>Talibaev Umidjon Shergaziyevich</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ.	192-199

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Iminakhunova Iroda Huseynovna</i> THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES	200-206
<i>Usmanaliev Khusniddin</i> INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESSOF A FOREIGN LANGUAGE	207-219
<i>Madaminov Uktam Ataxanovich</i> ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	220-224
<i>Yuldasheva Dilfuza Qodirovna</i> TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI	225-229
<i>Tohirova Shohsanam Yunusovna</i> THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	230-236
<i>Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna</i> ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN	237-242
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI	243-247
<i>Sheraliyev Odiljon</i> TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	248-254

07.00.00-Тарих фанлари

Ismailov G'afurjon Xasanovich
Buxoro davlat universiteti

**TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI"
MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiyaning Istanbul shahrida o'rta asrlarda "O'zbek tekkelari" nomi bilan mashhur bo'lgan, O'zbek tekkelarining biri shaharning sharqiy qismidagi Uskudar tumanida joylashgan XVIII asr o'rtalarida qurilgan "Sultontepa" tekkesining faoliyati va o'rta osiyodan kelgan musofirlar uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zi: Buxoro tekkesi, Ayyub tekkesi, Naqshbandiya tariqati, Usmonlilar imperiyasi, dargoh, tekke, kunya daftari, Turkiston.

Ismailov Gafurjon Khasanovich
Bukhara State University

**THE ROLE OF ONE OF THE UZBEK TEKKE(TAKES) IN TURKEY - "SULTANTEPA TEKKESI"
FOR FOREIGNERS.**

Abstract. This article tells about the activities of one of the Uzbek tekkes, known in the Middle Ages as "Uzbek tekks" in Istanbul, Turkey, the "Sultontepa tekkesi" tekke, built in the middle of the 18th century in the Uskudar district in the eastern part of the city, and about , how important it is for foreigners from Central Asia.

Key words: Tekke Bukhar, tekke Ayyub, tariqa Naqshbandiya, Ottoman Empire, dargokh, tekke, kunya notebook, Turkestan.

Исмаилов Гафуржон Хасанович
Бухарский государственный университет

**РОЛЬ ОДНОГО ИЗ УЗБЕКСКИХ ТЕККЕ(ТАКИЯ) В ТУРЦИИ- "ТЕККЕ СУЛТАНТЕПА" В
ЖИЗНИ ИМИГРАНТЕВ.**

Аннотация. В этой статье рассказывается о деятельности одного из узбекских текке, известного в Средние века как "Узбекские текки" в Стамбуле, Турции,-Текке "Султантепа теккеси", построенного в середине XVIII века в районе Ускудар в восточной части города, и о том, насколько он важен для иностранцев из Средней Азии.

Ключевые слова: текке Бухар, текке Айюба, тарикат Накшбандия, Османская империя, даргох, текке, тетрадь кунья , Туркестан.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N06>

Kirish. Usmoniyalar davrida Markaziy Osiyodan kelgan hojilar Makkaga borishdan oldin Istanbulga borishlari kerak edi. Buning sababi shundaki, Istanbuldagi Sulton Ayyub maqbarasini ziyorat qilish odat tusiga kirgan va ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Arabiston yarim oroli Usmonlilar imperiyasi tarkibida bo'lganligi sababli ziyorat qilish uchun avvalo Sultonning ruxsati talab qilingan. Shuning uchun turli mamlakatlardan ziyoratchilar ziyorat qilish uchun kelishgan, ketganlar birinchi bo'lib Istanbulga kelib, shaharning turli joylarida vaqtinchalik joylashishgan. Ayniqsa, Turkistondan kelgan karvonlar Uskudardagi Sultontepa tepaliklarida chodir tikib yurishardi. Afsonaga ko'ra, taxminan XVIII asrda Usmonli imperiyasining sultonı (shoh nomi turlicha berilgan) fuqarolik kiyimida va Uskudar orqali ot minib o'tayotganda jundan qilingan va ipak iplar bilan bezatilgan o'zbek chodirlarini ko'rgan va ular tomon yo'l oldi. O'zbeklar uni juda yaxshi kutib olishdi va nima uchun bu yerga kelganliklarini tushuntirishdi. Naqshbandiya tariqatiga mansub bu odamlar podshohga juda yoqdi va shayxiga bu yerda ular uchun tekke qurishga va'da berdi. Tekke qurilib, unga vaqf ajratilib, boshiga o'zbek shayxi tayinlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Istanbuldagi vaqflar bosh mudirligida saqlanayotgan hujjatlarga ko'ra, bu tekke Sulton Mustafo III (1757-1774) tomonidan asos solingan. Dargoh masjidining devoridagi yozuvida ham ushbu inshoot 1757-yilda Sulton Mustafo davrida qurilgani qayd etilgan. Biroq Ismoil Ayvansaroyning "Hadiqatul Javome" (Istanbul, 1864—65) asariga ko'ra, bu tekke 1754—55 yillarda vafot etgan Marash voliysi Abdulla posho tomonidan qurilgan.

Dargohda shayx Ibrohim Adham afandining podshohga tekkeni ta'mirlashda yordam so'rab yozgan qoralama xati bor. Xatda yozilishicha tekkega Turkistondan "yog'ilib" kelayotgan bechora darveshlar uchun boshpvana bo'lgani, ularning ko'pchiligi hajga kelgani yoziladi. Tez orada yordam so'rab javob berilganini 1896 yil sentabr oyida dargoh devoriga yozilgan va buni Sulton Abdulhamid nomiga yozilgan rahmat she'ri bilan bilib olsak bo'ladi.

Dargohda saqlangan hujjatlar ko'ra uning qanday faoliyati olib borganligi haqida tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Uskudardagi o'zbek tekkesi Turkistondan Makkaga Istanbulga yetib kelgan ziyoratchilar uchun mehmonxona bo'lib xizmat qilgan. Bu haqda ma'lumot beruvchi 2 ta yozuv mavjud. Ulardan birinchisi "kunya daftari", ikkinchisi esa "musofirlar daftari" deb ataladi. Bu daftarlarga tekkega kelganlarning ismi, otasining ismi, tug'ilgan joyi, kelgan sanasi va boshqa ma'lumotlarni yozib qo'yilgan. Ayniqsa "kunya daftari"da har bir mehmonning vazni, soch va soqolning rangi, shaxsiy belgilari ta'riflangan. Shuningdek, u kishining faoliyat turini, tekkedan chiqqan kunini va u hamroh bo'lgan kelgan kichik bolalar, ayollar va boshqa kishilarning kelish maqsadini ko'rsatilgan. Ikkinci daftarda esa bu ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda shaxsning tiroratlarining turi, diniy e'tiqodi, millati, u bilan birga kelgan ayollar va bolalarning ism-shariflari qayd etilgan. Bu daftardagi ma'lumotlar hukumat buyrug'i bilan tuzilgan bo'lishi ham mumkin. Birinchi daftarda 1905-1923 yillarda kelganlar haqida ma'lumotlar mavjud. Shundan keyin atigi 3 kishi (1942, 1947 va 1951 yillarda) qayd etilgan. Daftarda jami 468 kishi haqida ma'lumotlar mavjud. Ikkinci daftarda 1809-1826 yillarda kelgan 254 kishi haqida ma'lumotlar mavjud.

Eng ko'p tashrif buyuruvchilar Turkistonning turli shaharlaridan – Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Qo'shg'ar, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Qorako'l va O'shdan. Bazan Xitoyning Ko'hna Turfon degan joyidan bir qancha odamlar kelishgan. Kelganlarning ko'pchiligi bu yerdan Hijozga ketishardi. Ulardan ba'zilari bir necha yildan so'ng yana kelishdi va ko'plari

bu yerda uzoq vaqt qolishardi. Kelganlarning qolish muddati har xil edi — bir kechadan 4 yilgacha.

Sultontepa tekkesi bilan Istanbulning boshqa dargohlari, xususan, Ayub tekkesi va Buxoro tekkesi o'rtasida yaqin aloqalar mavjud edi, chunki bu daftarlarda tilga olingan odamlar asosan shu dargohlarda qolishgan. Bu dargohlarga Uskudardagi afg'on tekkesi kiradi

Tekkening doimiy a'zolari va musofir(mehmonlari). O'zbek tekkesining eng muhim a'zosi ustoz sanalgan shayx (murshid)dir. Shayx tekke boshqaruvi va uning izdoshlarining tasavvufiy tarbiyasi uchun javobgardir. U tekke rivojiga mas'ul bo'lib, darveshlar va tekke mehmonlarining farovonligini ta'minlovchi shaxs sifatida mas'uldir. Demak, tekkening borligi shayxga bog'liq. Shayxga o'z vazifalarini bajarishda yordam beradigan yoki shayxning vorisi sifatida qabul qilingan xalifa shayxdan keyingi ikkinchi eng muhim kishi sifatida hisoblanishi mumkin. Xalifalar shayx oilasidan yoki shayxga qon qarindoshligi bo'limgan shogirdlardan saylanishi ham mumkin. Oila a'zolaridan o'tkazilgan saylovlarga misol qilib, shayx Fayzulloh Darvish Xalilning o'g'lining xalifa etib tayinlanishini keltirish mumkin. Shayx Fayzullohning darveshlar tekkesidan shayx Usmonni voris etib tayinlashi uning qarindosh-urug' emasligiga misol qilib keltirsak bo'ladi. Tekkening qolgan a'zolari darveshlardir. Darveshlar shayx va xalifa o'rtasidagi ma'naviy kamolotga erishishga qaratilgan suhbatlarda qatnashadigan, turli tekkening vazifalarni bajaruvchi kishilar edi.

Ma'naviy kamolotga erishgan darveshlar avval xalifalikka, keyin esa murshidlikka darajasiga ko'tarilishi mumkin edi. Xalifalik vakolatiga ega bo'lganlar, Makkadan tashqarida naqshbandiylik tamoyillarini yoyish vazifasi yuklatilgan. Bir paytlar takiyaning darveshlaridan bo'lgan Shayx Fayzulloh ustozlar huzuriga aytishib darveshlikdan shayxli darajasigacha ko'tarilgan. Ma'naviy yetuklikga erishgan darveshlarni avval xalifalikka, keyin esa murshidlikka ko'tarish mumkin edi. Xalifalik hokimiyatini qo'llarida bo'lganlar naqshbandiya tamoyillarini Makkadan tashqarida tarqatishda yuklangan. Bir paytlar tekkening darveshlaridan bo'lgan Shayx Fayzulloh ustozlari huzurida aytishib darveshlikdan shayxlik darajasiga ko'tarilgan. Bedirgadagi "kichik arablar" jamoasining imomi Abdulkoliq ibn Abdusattorni tekkedan tashqari vazifalar yuklanganlarga misol qilib keltirish mumkin. Turkistonlik ziyoratchilar, ulamolar, shayxlar va savdogarlar tekkening doimiy mehmonlari hisoblangan. Bu musofir mehmonlar orasida eng ko'p kelib ketganlari, katta ehtimol haj ziyoratchilardir. Sababi har yili Turkistondan Makkaga borgan ba'zi ziyoratchilar Qrim-Istanbul-Anadolu yo'li bo'ylab sayohat qilishar edi, garchi bu yo'l uzoq va mashaqqatli bo'lsada. Chunki bu yo'l muhim edi, sababi Istanbul xalifalik markazi bo'lganligidir. Ana shunday ziyoratchilardan biri Buxorolik ziyoratchi Ali bin Husayn bo'lib, 1856-yilda o'zbek tekkesida vafot etgan. Ma'lumki, "O'zbeklar takiyasi" nafaqat Turkiston aholisi, balki islom olamining turli hududlaridan kelgan kishilar uchun ham o'z eshiklarini ochgan. Darhaqiqat, hind tekkesi shayx Abdulhabib vafotidan so'ng uning ishxonasi va tekkesi ta'mirlanib, 1819-yilda tekkega kelgan hind hojilari vaqtincha o'zbek tekkesida istiqomat qilishgan. Ba'zan, mehmonlarni janjal, o'g'irlik yoki boshqa nojo'ya xatti-harakatlari uchun tekkedan haydar yuborilgan holatlar bo'lgan. Kasal mehmonlar kambag'allar kasalxonasiga yuborilgan, ular tez-tez o'sha yerda vafot etishgan. Bir qator yozuvlarda 1915-1916 yillardan boshlab Germaniya hukumati tomonidan, Rossiyadan Istanbulga yuborilgan odamlar bilan bog'liq. Ulardan biri o'zbek bo'lgani uchun politsiya bo'limi tomonidan Afg'on tekkesiga, u yerdan esa o'zbek tekkesiga yuborilgan. Yana bir holatda, talaba afg'on bo'lishiga qaramay, afg'on tekkesiga qabul qilinmay, politsiya idoralari tomonidan yana Sultontepa

tekkesiga yuborilgan. O'sha yili, ayniqsa, Odessadan juda ko'p odamlar oqimi kelgandi. O'sha yil 100 dan ortiq kishi ro'yxatga olingan, bu odatdagidan 3-4 barobar ko'proq bo'lgan.

Sultontepa tekkesidagi mehmonlarining iqtisodiy daromadlari. Musofirlar ichida dehqon, etikdo'z, sartarosh, baqqol, talaba, tikuvchi, haydovchi singari kasb-hunar egalar ko'p uchraydi. Ulardan faqat bir kishi o'zini darvish deb yozdirgan. Dargohda yashagan barcha mehmonlar kun davomida tinimsiz mehnat qilar edilar va tirikchilik uchun o'zlari mablag' topar edilar. Dargohda 40 ga yaqin kishi yashagan, ularning aksariyati hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Dargoh masjidi qoshidagi barcha binolar ustaxonaga aylantirildi. Hatto dargohning ayrim shayxlari ham hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Ulardan birining o'z ustaxonasi bo'lmasa-da, tikuvchi edi. Uning mahsulotlari hatto Sulton Abdulazizning (1861-1876) e'tiborini tortdi va ulardan ba'zilarini o'z saroyi uchun tanladi. Sulton Abdulhamid davrida ham dargoh tikuvchilari saroya kiyim tikish buyurtmalarini olishgan.

Dargohda 1874-1877 yillardagi ko'rpa-to'shak ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar va chiqim xarajatlar haqidagi hujjatlar ham mavjud. Bu harajatlarga tikuv mashinalari tushgan mablag'larni muqaddas pirlarning ruhlarini shod etish uchun darveshlar uchun tayyorlanadigan palov xarajatlariga, kundalik davolanish xarajatlariga va boshqalar sarflangan.

Dargohda vaqflardan tushgan daromadlar, ulardan dargoh aholisining oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlari uchun sarflanganligi haqida bir qancha kitoblar ham mavjud.

Sultontepa tekkesi va unda yashagan musofirlarning ahvoli. Dargohda yana bir diqqatga sazovor hujjat saqlangandi. Bu Shayxul Islomning barcha shayxlarga 1877 yil 17 avgustdagi farmoni. O'sha yilning 24 aprelida rus-turk urushi boshlandi. Shayxulislom o'z maktubida shayxlarga har kuni zikr o'qish rejalashtirilgan tekkega to'planib, musulmonlarning omonligi va g'alabasi, musulmon bo'limganlarning, ya'ni ruslarning mag'lubiyati va halokati uchun duo qilishlarini buyurgan.

Sultantepa tekke qabristoniga ko'plab taniqli shaxslar dafn etilgan. Ular orasida Turkistondan kelganlar ham ko'p edi. Xususan, bu yerda Buxoro Respublikasining birinchi va oxirgi prezidenti, Usmonxo'ja Po'latxo'janing (1878-1968) qabri joylashgan. Bolsheviklar Buxoroni egallab, Milli Respublikani vayron qilgandan keyin Istanbulga keladi va u yerda siyosiy faoliyatini davom ettiradi, Vatan ozodligi uchun kurashni to'xtatmaydi. 1928-yilda Istanbuldagi boshqa o'zbek muhojirlari bilan birgalikda "Yangi Turkiston" jurnalini nashr eta boshlaydi. Uning o'g'li professor Temur Xo'ja hozirda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Michigan universitetida o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars beradi.

XX asr boshlarida Sultontepadagi o'zbek tekkesiga o'sha davrning mashhur shaxslari tez-tez borib turishardi. Bu yer olimlar, shoirlar, hunarmandlar, san'atkorlar, xattotlar yig'ilib, muloqot qiladigan maskan edi. Usmonlilar imperiyasi qulagandan keyingi milliy tiklanish davrida Dargoh shayxlari turk vatanparvar kuchlarini qo'llab-quvvatladilar. Turkiyaning 1919-1922 yillardagi Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Gretsiyaga qarshi urushi davrida bu tekke Otaturk askarlariga katta yordam ko'rsatdi. 1925-yilda hukumat qarori bilan Istanbuldagi barcha tekkelar yopildi va o'z faoliyatini to'xtatdi, binolari boshqa vaqf va tashkilotlarga o'tkazildi. Ulardan faqat Uskudardagi Sultontepa tekkesi yopilmagan va qaror chiqarilgandan keyin ham faoliyatini davom ettirgan. Otaturk qilingan xizmatlarni hisobga olib, tekkeni yopmagan. Biroq 1925-yildan so'ng O'rta Osiyoda sovet tuzumi o'rnatilib, Turkiyada respublika tuzumi o'rnatilgach, Uskudardagi o'zbek tekkesi yopilganligiga qaramay avvalgi vazifalarini bajarmay qo'ydi va adabiy kechalar uyushtiriladigan joyga aylandi. Chunki bu yerga O'rta

Osiyodan ziyoratchilar karvonlari kelmaydigan bo'ldi. Ularni himoya qilgan Usmonli imperiyasi ham tarixga kirgan. Bu tekke binosi hozirgacha mavjud. Hozirda u yerda Istanbul tadqiqot va ta'lim jamg'armasining (ISAR) ixtisoslashtirilgan markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Shayx Adham afandining avlodlari hozirgacha shu yerda istiqomat qilishadi.

Xulosa va takliflar. Turkiya hududida tashkil qilingan O'zbek tekkelaridan biri bo'lgan Sultontepa tekkesi ham O'rta Osiyo, ayniqsa Turkiston hududidan borgan musofirlar uchun beqiyos katta ahamiyat kasb etadi. Bu tekkelarga kelgan musofirlar uchun nafaqat boshpana, balki vatanlari o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniyatlar rivoji, ularning davlatlari orasida o'zaro iliq aloqalarni mustahkamlash uchun ko'priq vazifasini bajargan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuni aytish joizki Usmonli imperiyasining O'zbek tekkelariga bo'lgan homiyligi va g'amxo'rliqi O'rta Osiyodagi qardoshlariga xayrixoh emasligini ko'rsatdi. Bu kabi tekkelar kelajakda ham Turkiya va O'zbekistonning do'stona aloqalarini yanada mustahkamlanishi va rivojiga o'z hissasini qo'sha oladi desak bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Шихабуддин Мерджани. Риҳлет ал-Мерджани. Казань: Изд. Чирковой, 1897.
2. Abu-Manneh B. Sheikh Murād al-Bukhari and the Expansion of the Naqshbandi-Mujaddidi Order in Istanbul // Welt Des Islams, 53, no. 1 (March 2013), p. 1–25.
3. Adivar H.E. Mor Salkimli Ev. Istanbul: Atlas Kitap evi, 1970.
4. Alper M. Buhara Özbekler Tekkesi // Arkitekt, s. 3, 1995, s. 38 – 43.
5. Altun M. Kuvayı Milliyecilerin Gizli Sığınağı ve Ardindaki Bilinmeyenler: Özbekler Tekkesi // Toplamsal Tarih, c. 19, sy. 112. Istanbul, 2003, s. 18 – 23.
6. Ammour L. La Restauration de Tekke des Ouzbeks à Üsküdar // Observatoire Urbain d'Istanbul, no. 7 (décembre 1994). Istanbul (IFEA), p. 14 – 18.
7. Avşar A. Türkiye Kamuoyunda "Diş Türkler" Algısına Bir Katkı: Birinci Dünya Savaşı'na Kadar Türkistan Türkleri ile Türkiye Türklerinin İlişkileri ve Savaşta Türkistanlıların Desteği // Çanakkale Araştırmaları Türk Yılı: 12, Bahar 2014, Sayı: 16, s. 157 – 179.
8. Aytaş G., Çeltik H. XIX. Yüzyılda Yapılmış Bir Haritadan Yola Çıkarak Eski İstanbul'da Tarikatların Faaliyetleri // Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi, no. 58 (2011), s. 89 – 104.
9. Bal M.A. Milli Mücadele'de Üsküdar Özbekler Tekkesi // Arşiv Dünyası, Sayı 9, İstanbul, 2007, s. 56 – 57.
10. Bandirmali-zade Ahmed Münib Üsküdarî. Mecmua-yi Tekaya. İstanbul: Alem Matbaasi, 1307/1889-90.
11. Baykara T. Türkistan'dan Gelen Bir Isim ve Efsane: Kız Kulesi // Üsküdar Sempozyumu I (23 – 25 Mayıs 2003). Bidiriler. Cilt 1. İstanbul, 2004, s. 332 – 336.
12. Bektaş C. Üsküdar'in Sultantepe'sindeki Özbekler Tekkesi // Tarih ve Toplum 1984, 8, s. 40 – 45.
13. Sobirovich T. B. Strategy of development of pilgrimage tourism in Uzbekistan // MODERNIZATION OF ISLAMIC CULTURE IN BUKHARA AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SUSTAINABLE TOURISM" International Scientific and Practical Conference, Bukhara. – 2020. – T. 2. – №. S 24.
14. Sobirovich, T. B. (2019). Tourism in Central Asian context. Вестник Института/Сокровища Науки, (2), 732-733.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).